



RAXBAR XODIMLARNI TARBIYALSHDA ELCHILIK MUNOSABTLARINING  
MANFAATLI MASALALARI (XIVA XONLIGI VA ERON ELCHILIK ALOQALARI  
TARIXI MISOLIDA)

Polvonov J.A

(Toshkent "Temurbeklar muktabi" harbiy-akademik litseyi) tadqiqotchi

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'zining juda boy va qadimiy tarixiga ega. Bu o'lka inson madaniyati dastlabki kurtak otgan sarzaminlardan biri sanaladi. U butun tarix davomida umumbashariy qadriyatlarning takomillashuviga salmoqli hissa kushib kelgan. Bu hol ana shu sarhadlarda ming yillar davomida qad ko'targan va tarix taqozosiga ko'ra birin-ketin faoliyat ko'rsatib o'tgan o'nlab davlatlarning serqirra va mazmundor tajribasida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bugungi tahlikali davrda elchilikni to'g'ri tashkil etish va tashqi a'loqalarda chuqur o'ylangan mustamkahkam qarorlar qabul qilish muhim o'rinni tutadi. Bu borada o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rinni tutgan Xiva xonligida elchilarни qabul qilish, ularga berilgan e'tibor diqqatga sazovardir. Bu yo'nalishda izchil izlanishlar olib borish va ilmiy xulosalar berish hozirgi davr tarix fani oldida turgan dolzarb vazifadir. Shunday ekan har bir tadqiqotchi ilmiy yangilik qilishda mahalliy manbalar bilan bir qatorda arxiv hujjatlaridan ham foydalanilsa tarix fani oldida turgan ilmiy muammolarga aniqlik kiritilgan bo'lardi.

Xiva xonligi tashqi aloqalarda dunyodan uzilib qolgan, izolyatsiya holatidagi qoloq davlat sifatida noto'g'ri qarash mavjud. XIX asr Xiva xonligida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy jonlanish ro'y berib, uning yon-atrof va uzoq-yaqin mamlakatlar bilan siyosiy munosabatlarda ham faollik vujudga kelgan davr hisoblanida. Bu ma'lumotlar xorazimlik muarrixlar va chet ellik olim-harbiy, diplomatlar kundaliklari, bizgacha yetib kelgan hujjatlarda aks ettirilib, O.Sodiqov, M.Yo'ldoshev, T.To'xtametov, B.Mannonov, F.Abdullaev hamda Munirov, S.Saburov, O.Mutalov, M.Qayumov, Z.Rahmonqulova, O.Masaloeva, kabi olimlarimiz tomonidan ma'lum mavzu va yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Rus diplomati N.Muravyovning XIX asr 20- yillarda O'rta Osiyoga sayohati va eron elchilari Muhammad Alixon G'afurning 1842-yili Xivaga Olloqulixon, Abbas Qulixonning 1844-yili Buxoro amiri Nasrulloxon huzuriga kelishiga doir xotiralar o'zbek tilida ham chop etilgan[1].

Fors-tojik adabiyoti durdonalarini turkiy tilga o'girishdek sharafli ishni Navoiy va Ogahiyalar yuksak mahorat bilan bajarishgandi.Ushbu xayrli ish Bobur Mirzo va Muhammad Rahimxon 2-Feruzxon davrida yanada yuksaklikka ko'tarildi.

Shuni alohida qayd etish joizki, so'nggi yuz ellik yil davomida Eronda turkiyshunoslik, O'zbekiston va boshqa chet ellarda eronshunoslik fani vujudga keldi. O'zbek va xorij eronshunoslari X.Ritter, P.Shpuler, V.Xints, J.Kameron, X.Beyli, V.V.Struve, A.Yu.Yakubovskiy, Ye.E.Bertel's, Sh.Shomuhamedov, B.G'ofurov, B.Mannonov, Z.Rahmonqulova, O.Masolieva, O.Mutalov, N.Polvonov, Ismoil Bekjon, N.Allaeva kabi olimlar bu sohada salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Lekin ularning e'lon qilgan asarlari adabiyot, san'at va madaniyat tarixiga bag'ishlangandir. Ayni choqda Eron va Turon



xalqlarining so'nggi asrlardagi harbiy va fuqarolik tarixi bo'yicha tarjima asarlari juda ozdir. Biroq Rossiyadagi sharqshunoslik, xususan eronshunoslarning olib borgan ilmiy faoliyatlariga, xususan ular chop etdirgan kitoblarga nazar tashlasak, ularda fanning bu tarmog'i jadal rivoj topayotganini ko'rish mumkin.

Xiva xonligida doimiy ravishda muhim masalani halqilishda Oliy Kengash faoliyat olib borgani tarixiy tadqiqotlardan ma'lum. Masalan: Olloqulixon biror muhim qaror chiqarishdan oldin, doim kengash chaqirgan. Kengashga mehtar, qushbegi, naqib, shayhulislom, devonbegi kabi nufuzli kishilar qatnashgan. Kengash ana shu kishilar ishtirokida xonlikning ichki ishlariga oid masalalarda qaror qabul qilardi va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabatlariga doir masalalarni hal etardi. Buni o'sha davrda Xivaga kelgan Eron elchsi Muhammad Alixon G'afurning kundaligda o'z aksini topgan. Yana shuni aytish mumkinki, "muzokoralar boshlanishidan oldin mulozimlar hozir bo'lganlarga osh tortilgan va mehmondorchilikdan keyin maslahat boshlangan"[2] deb yozadi N.Muravev.

Elchilarni qabul qilish marosimida yoki boshqa muhim ma'rakada mansabdor a'yonlar va unvon egalari ravoqda quyidagi tartibda joylashadilar: uzun ravoqning kun yurish tomonidagi devor o'rtasida xon o'tiradi. Xoning chap tomonida esa ayo'n va sarkardalar: naqib, amirulumaro, bosh inoq, ikki mutavvali, xonning sayidlardan bo'lgan urug'lari, shayhulislom, to'rt otaliq, to'rt otaliq, to'rt biy, to'rt mirob, uch darg'a, uch arbob, ikki oqa va uch savdogar o'tiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki "Ruznomaiy safari Xorazm" ("Xorazm safari kundaligi" mualliflar Ne'matjon Polvonov va Ismoil Bekjonov, fors tilidan tarjimon Ismoil Bekjonov)da Muhammad Alixon G'afurning 1842 yilda Xorazmdagi uch oylik elchilik natijasida Xiva xonligining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy vaziyati va harbiy salohiyatining ayrim sohalari haqida to'plaga ma'lumotlarini hisobot shaklida Eron davlatiga taqdim etgan.

"Ruznomaiy safari Xorazm" ("Xorazm safari kundaligi") [3]dagi ma'lumotlarni o'qir ekanman, bu kundalikda muzokalaralarning asosiy ko'rinishi og'zaki muloqot bo'lib, elchi bosh masalani bevosita xon yoki uning nomidan ish olib bongan mehtar bilan ko'rishib muhokama qilgan. Bahs-munozaralar cho'zilib ketgan yoki qaror qabul qilishda bir to'xtamga kelish qiyin bulgan hollarda muzokalarlar xatlar orqali ham olib borilgan. Ayniqsa, Xivadagi eroniq qullarni ozod qilish borasida xonning yon bosishiga erishmoqchi bo'lgan Muhammad Alixon G'afur aksariyat hollarda maktub yozib, o'z e'tirozlarini bayon qilar va ularga tegishli javob berilishini talab qilar edi. Aytish joizki, maktublar orqali murojaat etishda ham subordinatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilingan. Xususan, Eron elchisi ham, ingliz vakili Tomson ham xonga to'g'ridan-to'g'ri emas, mehtarga maktub yo'llash orqali o'z arzlarini bildirishgan[4].

Xonlikka kelgan elchilarni kutib olish va ularga ehtirom ko'rsatish ham diqqatga sazovardir. Bu haqda Muhammad Alixon G'afur o'zning kundaligada "Shundan keyin o'zlarining qoidasiga binoan Mehtar tomonidan bitta kishisi daturxon obkelib, noni bilan oldimizga tashlab ketdi. Birozdan so'ng yozilgan dasturxon o'rtasiga ikki kalla o'ris qand, bir taqsimchada nuql (mag'izli parvarda) va yana bir likopchada kishmish va tag'in boshqasida tursash .....kundalik xarajatlarimiz uchun bizning ikki tumon(O'rta asrlarda



Eron pul birligi – 10000 dinor)ga teng turuvchi qirq tanga olib keldi va nozir(hol-ahvolimizga qarab turuvchi) qo‘liga burib ketdi” deb yozadi.[4]

Eron elchisi mehmondorchilikka borganda dasturxonga nima tortilgani, xizmat qanday bo‘lgani haqida ham to‘htalib o‘tgan. “Xivaqdan chiqishimizdan bir kun oldin o‘z odami orqali, ertaga falon bog‘da tushlikka mehmonga keling, deb yuboribdilar. Ertasiga tush payti yana odam kelib, qani yuringlar, dedi.....aytilgan yerga bordik, bog‘da suv to‘la bitti hovuz bo‘lib, uning atrofidagi gujumlardan birining tagiga gilam to‘sab qo‘ilgan ekan”– Shu mehmondorchilikda, dasturxonga avvaliga non, ketidan bir tovoqda guruch qaynatmasi, bir tovoqda kunjit yog‘iga pishirilgan taom tortdilar. deb yozgan Muhammad Alixon G‘afyp “Ruznomaiy safari Xorazm” da.

Shu bilan birga xonning ayrim rasm-rusmlari haqida ham o‘z kundaliklarida quyidagicha yozib qoldirgan:

“Xon libos kiyish jihatidan boshqa odamlardan unchalik farq qilmaydi. Ya’ni xon kiyinishda o‘zgacha zeb bermaydi, faqat bosh kiyimida qimmatbaho jig‘asi bo‘ladi. Xon jig‘asining bahosi ellik-oltmis tuman bo‘lsa kerak. Otliq yurganida otning dumiga yaltiroq kumush bezaklar taqiladi. Otga minish oldidan uch marta surnay chalinadi. Otga minishi bilan bir bor karnay chaladilar.

Xon kelganlarni qabul qilish uchun devonxonada o‘tiradi. Salomga kiruvchi shaxslar muayyan aniq kishilar emas. Balki kim hohlasa, o‘sha odam bemalol uning oldiga kira oladi. Xon mehtar to‘ra va shunga o‘xshagan katta martabali kishilarga o‘tirishga izn beradi. Boshqa toifadagi kishilar esa xon huzurida salom berib, qoidaga ko‘ra fotiha o‘qib qo‘lini yuzi va soqoliga tortib qaytib ketadilar. Agar biror kishi hadya olib kelsa, xon ochiq chehra bilan qabul qiladi. Masalan, birov o‘n dona olma keltiradi, yana boshqa birov bir barra qo‘zichoq. Xonga nimaiki had‘ya keltirsa, ayb sanalmaydi. Hatto men shunday bir hodisaning guvohi bo‘ldimki, bir kuni qaysidir bir qassob xonga had‘ya tarzida qo‘yning yurak-bag‘ri va bir necha qo‘chqor tuxumini keltirdi. U esa bundan bag‘oyat xursand bo‘ldi.”

Elchi biror bir masla haqida mehtar yoki xonga ma‘lum qilgan. Masala maktublar orqali muhokama qilinishining o‘ziga xos sabablari edi. Muzokalararning soni chegaralab qo‘yilmagan bo‘lsa-da, xonlikda ikki-uch oygacha qolgan elchi xon bilan bevosita bir yoki bir necha martagina ko‘rishgan. Ba’zi hollarda bu muzokalar yarim tungacha davom etgan. Qolgan vaqtda xon nomidan mehtar elchilar bilan muzokara olib borgan.

Muzokara bevosita asosiy masalani muxokama etish yoki kerakli vaziyatni hosil qilish uchun uyushtirilgan suhbat bilan boshlanar edi. Zero, diplomatiyaning o‘ziga xos tartib-qoidasiga ko‘ra ba’zi xollarda maktublarda umumiy rasmiyatçilik so‘zlari keltirilgan bulib, muhim masalalar elchilarning og‘zaki xabarları orqali yetkazilgan.

Manbalarda elchining hukmdor qabulida bo‘lgan vaqtida «ma’ruz etti» degan ibora qo‘llanadiki, bundan yuborgan tomon o‘z muddaosini maktubda bayon etish bilan birga elchi orqali og‘zaki tarzda yetkazilishi lozim bo‘lgan masalalar ham bo‘lganligini anglash mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, muzokalarlarda elchining shaxsiyati, uning fe'l-atvori hamda o‘zini tutishi katta ahamiyatga ega bulgan. Shu jihatdan, yuqorida keltirilganideq Xiva



amaldorlariga takabburlik bilan «sizlar qoidani bilmaysizlar. Qoidalari ni nazardan soqit qilib, ko'nglingizga kelganini gapiraverasizlar» deya qo'pollik qilgan Muhammad Alixon Xiva xoni saroyida anchagini yomon taassurot qoldirgan. [5]

Elchining shaxsi muzokara jarayonida muhim ahamiyatga ega bulishi bilan birga yana bir qancha omillar bor ediki, elchilik natijalariga hamda umumiyligi vaziyatga bevosita ta'sir kursatgan. Jumladan, Muhammad Alixon boshchiligidagi elchilik muvaffaqiyatsizligining bosh sababi, uning o'zi ta'kidlab o'tganideq Angliya va Rossiya davlatlari vakillarining u bilan birga kelganliklarida edi. Elchining axborotnomasida qayd etilishicha, xon oxirgi uchrashuvda Eron elchisiga tanbeh berarkan, xafa bo'lib «Jamshid martabali podshoh hamisha o'z odamini yuboradilar, bu gal nima sabab bulib rus va inglizdan odam qo'shib yuboribdilar? Sen uzing kelaverganingda maqsadga muvofiq bulardi. Mana endi asir bersam, do'stu dushman "xon hazrat rus va inglizdan qo'rqqanidan asir berdi" deb ustidan kuladilar» degan fikrni bildirgan.[6]

Shuni alohida takidlash kerakki Muhammad Alixon G'afurning takidlashicha xonlikda bironta o'g'ri yo'q ekan, bunga sabab har qanday talonchilik yoki o'zganining mulkiga tegish ham qattiq jazolangan. U shu yerdagi aholidan eshtishiga qarganda bir kuni bittasi daraxt tagida belbog'ini unitib qoldirgan ekan uni bosh birsi daraxtga osib qo'ygan, keyin bu haqda arz qilgan natijasida daraxtga beobog'ni osgan kishining qo'li kesilgan ekan. Bundan ko'rinib turibdiki Olloqulixon davrida shariat qonunlari to'g'ri va qattiq bajarilgan desak bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki XIX asr o'rtalariga kelib Xivada tashqi aloqalar yaxshilana boshlab, Angliya, Rossiya, Eron va boshqa davlatlar bilan aloqalar yanada kuchaygani tadqiqotchi olimlar ishlarida o'z isbotini topgan. Lekin ularning e'lon qilgan asarlari adabiyot, san'at va madaniyat tarixiga bag'ishlangandir. Ayni choqda Eron va Turon xalqlarining so'nggi asrlardagi harbiy va fuqarolik tarixi bo'yicha tarjima asarlari juda ozdir. Biroq Rossiyadagi sharqshunoslik, xususan eronshunoslarning olib borgan ilmiy faoliyatlariga, xususan ular chop etdirgan kitoblarga nazar tashlasak, ularda fanning bu tarmog'i jadal rivoj topayotganini ko'rish mumkin.

Muhammad Alixon G'afurning kundaliklari forsiydan tarjima qilinishi o'sha davr ma'lumotlardan ko'proq bilimga ega bo'lishimizga yordam beradi.

Bu manbani o'qishda shunday xulosaga keldimki elchining muloqati jarayonida xonlik mulozimlari xattoki xonni ham mensimasdan tahtit shaklida so'zlashi, elchiga nisbatan yomon tessurot qoldirdi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash o'rinniki, mazkur hujjalardagi ko'pgina materiallar hali hanuzgacha nafaqat darsliklar, hatto bevosita Xiva xonligi tarixiga oid tadqiqotlarda ham o'z aksini topmagan. Sababi, arab va fors yozuvida yozilgan bu kabi ma'lumotlarni o'qish juda qiyin. Shuning uchun olimlarimiz N.Polvonov, Ismoil Bekjonov va boshqalarning ishlarini davom ettirib, bu kabi kundaliklarni nashr qilib keng jamoatchilikka taqdim qilish kerak.



## FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Alixon G'afur. Xorazm safari kundaligi (mualliflar N.Polvonov va I.Bekjonovlar) – T: “Yangi asr avlodi”, 2009.
2. Omonulloh Mutalov. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. –T: 2005. B. 27
3. Muhammad Alixon G'afur. Xorazm safari kundaligi (mualliflar N.Polvonov va I.Bekjonovlar) – T: “Yangi asr avlodi”, 2009.
4. Muhammad Alixon G'afur. Xorazm safari kundaligi ... – B.ZZ – 37.
5. Ogahiy Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘i. Gulshani davlat ... – B.180.
6. O’sha joyda. – B.38.